

TURKIYA TURIZM INDUSTRIYASINING MUAMMOLI VA KUCHLI TOMONLARI

Nasimova Mohinur Naim qizi

Rahbar: Zakirova Sayora Alimovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Anotatsiya

Maqolada Turkiya davlatida turizmning kuchli va muammoli jihatlari kompleks tarzda ko'rib chiqiladi. Bunda mamlakatning raqobatbardosh jihatlari, tabiiy afzalliklari, rivojlanish imkoniyatlari, mavjud kamchiliklari SWOT-tahlil usulidan foydalanib yoritiladi. Dunyoning yetakchi turistik davlatlaridan biriga har yili o'nlab million turist tashrif buyuradi, biroq sohaning barqaror rivojlanishi uchun to'sqinlik qiladigan omillar ham mavjud. Shuningdek, maqolada O'zbekiston uchun Turkiya turizm modelining ahamiyati qiyosiy tahlil asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: *turistik xizmatlar, SWOT-tahlil, turizm salohiyati, turistik infratuzilma, xalqaro turizm, mavsumiylik, turizm industriyasi.*

Kirish

Turizm- eng jadal rivojlanayotgan istiqbolli soha va Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga qaraganda xalqaro YaIMning 10 foizini ¹tashkil qiladi[7]. Bu rivojlangan mamlakatlarda har o'n insondan biri shu soha vakili ekanini bildiradi. Tarixiy obidalar, o'ziga xos an'analar, g'arb va sharq uslublari chorrahasidagi arxitektura, qulay geografik joylashuv, xilma-xil tabiat, rivojlangan infrastruktura bilan Turkiya dunyo turizmida o'z o'rniga ega. 2023-yilda 56 mlndan ²ortiq turistni qabul qilib dunyoning eng ko'p tashrif buyuriladigan davlatlari qatoriga kirgan ushbu mamlakatda albatta turizm yalpi ichki mahsulotga sezilarli hissa qo'shib kelmoqda.

O'rta Yer dengizi mintaqasida sayyohlar bilan eng gavjum yo'nalishga ega bo'lishiga qaramay bir qancha muammolar mavjud. Har qanday sohadagidek Turkiya turizmida ham strukturaviy va tashqi, masalan, ekologik, siyosiy, iqtisodiy, omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Keltirilgan sabablarga ko'ra ushbu masalalarni ilmiy asosda tahlil qilish ahamiyatga ega.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiya yuqori sur'atlarda rivojlana boshladi. 1980-yillardan keyingi iqtisodiy reformalar turizm rivojlanishida turtki bo'ldi. 1960-1980-

¹ <https://wtcc.org/news/travel-tourism-sector-reached-record-breaking-new-heights-last-year>

² <https://www.dailysabah.com/business/tourism/turkiye-crowns-2023-with-record-492m-tourists-543b-in-revenue>

yillarni shartli ravishda boshlang'ich davr deb olsak 2000-2020-yillarda xalqaro turizmida o'sish davri bo'ldi.

Turkiya iqtisodiyotida turizm muhim o'rin egallaydi. World Travel & Tourism Council ma'lumot va tahlillariga ko'ra YAIMdagi umumiy ulushi 11-12³ foizni tashkil qiladi. Aholi bandligining 12 foizi⁴ aynan shu sektorga to'g'ri keladi[9]. Masalan, 2023-yilda turizm 54,3 mlrd⁵ AQSH dollar daromad olib kelgan. Bu mablag'lar Turkiya iqtisodiyotiga kiradigan tashqi manba sifatida kirib keldi va to'lov balansini yaxshilashga xizmat qildi. Tashrif buyuruvchilar soni esa 49 mlndan 6'ortiq bo'lgani haqida Ministry of Culture and Tourism of Turkey xabar berdi[6]. Quyidagi 1-jadvalda Turkiya turizmining 2019–2023-yillar oralig'idagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. Turkiya turizmining asosiy ko'rsatkichlari (2019–2023)

Yil	Tashrif buyuruvchilar (mln)	Daromad (mlrd AQSh \$)	Bandlik (mln kishi)	YaIMdagi ulush (%)
2019	51,2	34,5	2,8	11,3
2020	15,9	12,1	1,9	4,2
2021	29,9	24,5	2,4	8,7
2022	44,6	46,3	2,9	10,8
2023	56,1	54,3	3,1	11,7

Manba: UNWTO (2023)[7], Turkish Ministry of Culture and Tourism (2023)[6], World Travel & Tourism Council (2023 [9]).

1-jadvalda ko'rinadiki, COVID-19 pandemiyasi (2020-yil) turizmga eng katta zarba berdi — tashrif buyuruvchilar 51,2 mlndan 15,9 mlnga tushib ketdi va daromad uch barobar kamaydi. 2022–2023-yillarda soha nafaqat tiklandi, balki rekord ko'rsatkichlarga erishdi[2].

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra xulosa qilish mumkinki, turizm Turkiya iqtisodiyotidagina emas balki bandlikni ta'minlash, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda ahamiyatli strategik tarmoqdir

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Asosiy tahlil usuli sifatida SWOT-tahlil tanlandi. Bu usul yordamida mamlakatning ichki kuchli va zaif tomonlarini, tashqi imkoniyatlar va tahdidlarni tizimli baholandi. Bundan tashqari, qiyosiy tahlil metodi

³ <https://wtcc.org/news/travel-tourism-sector-reached-record-breaking-new-heights-last-year>

⁴ <https://wtcc.org/news/travel-tourism-sector-reached-record-breaking-new-heights-last-year>

⁵ <https://www.dailysabah.com/business/tourism/turkiye-crowns-2023-with-record-492m-tourists-543b-in-revenue>

⁶ <https://www.ktb.gov.tr/EN-153031/tourism-statistics.html>

qo'llanildi: Turkiya raqobatdosh O'rta yer dengizi davlatlari bilan solishtirma ko'rsatkichlar asosida o'rganildi.

Tadqiqotda induktiv va deduktiv usullar birgalikda qo'llanildi: xususiy statistik ma'lumotlardan umumiy xulosalar chiqarildi. Shuningdek, nazariy modellar orqali muayyan holat bashorat qilindi. Ma'lumotlar manbai sifatida UNWTO, World Travel & Tourism Council va Turkiya Madaniyat va Turizm vazirligi rasmiy hisobotlari, soha bo'yicha ilmiy jurnallardagi peer-reviewed maqolalar asosida foydalanildi.

Asosiy qism: SWOT-tahlil natijalari

SWOT-tahlil natijalariga ko'ra Turkiya turizmining kuchli va muammoli tomonlari, shuningdek tashqi imkoniyatlar va tahdidlar 2-jadvalda taqdim etilgan.

2-jadval. Turkiya turizm industriyasining SWOT-tahlili

KUCHLI TOMONLAR (Strengths)	MUAMMOLI TOMONLAR (Weaknesses)
- Noyob geografik joylashuv (Yevropa-Osiyo chorrahasi) - Boy tarixiy-madaniy meros (UNESCO ob'ektlari) - Keng turizm turlari spektri (plyaj, tibbiy, eko) - Rivojlangan all-inclusive infratuzilma - Raqobatbardosh narx (lira kursi)	- Siyosiy beqarorlik xavfi va imij muammolari - Turizmning iqtisodiyotga haddan tashqari ta'siri - Mavsumiylik (asosan yozgi faollik) - Hududlararo xizmat sifati tafovuti - Valyuta beqarorligi va investitsiya xavfi
IMKONIYATLAR (Opportunities)	TAHDIDLAR (Threats)
- Osiyo bozorlaridan (Xitoy, Hindiston) o'sish - Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston) oqimi - Tibbiy turizmni kengaytirish (2024: 1,5 mln) - Ekoturizm va agroturizm segmentlari - Qishki va mavsumiy diversifikatsiya	- Mintaqaviy geosiyosiy beqarorlik - Raqobatchilar: Gretsiya, Ispaniya, Italiya - Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi - Global pandemiya/inqiroz xavfi - Sohilbo'yi intensiv qurilish muammolari

Manba: muallif tomonidan Kozak & Bahalli (2022), Erdogan (2022) asosida tuzilgan.

1. Kuchli tomonlar (Strengths)[1]

Turkiya Yevropa va Osiyo tutashgan noyob geografik joylashuvga ega. Istanbul shahri esa shu ikki qit’ani birlashtirib turadi va bu uning turistik qiymatini oshiradi, bundan tashqari, Istanbul Ataturk, Sahiba Gokcen aeroportlari orqali har yili millionlab yo’lovchi o’tadi⁷.

Dunyodagi eng ko’p UNESCO merosi ro’yxatiga kiritilgan obyektlarga ega bu davlat bir paytning o’zida Qadimgi Rim, Vizantiya va Usmonli turklar imperiyasi tarixiga qiziquvchilarni o’ziga jalb etadi. Eng yaxshi saqlab qolingan antik shahar – Efesdan tortib, noyob geologik landshaftga ega- Kappadokiya, Ayasofya, Topqopi saroyi, Troya xaroblari yuqoridagi aytilgan xazinaning bir qismi xolos⁸.

Mamlakatda turizm turlari spektri keng va sayohatchilar Egey va O’rta yer dengizi sohillarida plyaj turizmi, Anadolu shahrida ekoturizm va agroturizm⁹, Antaliya va Bodrum kabi shaharlarda esa xashamatli dam olishlari mumkin. Istanbul esa shartli ravishda madaniy poytaxt va Yevropa bilan raqobatlasha oladigan tibbiy turizm nuqtasiga aylangan. Yaqin yillarda estetik tibbiyot va sog’liqni saqlash xizmatlari uchun mamlakat ko’plab xorijiy tashrif buyuruvchilarni jalb qilmoqda

Antaliya kabi osiyolik va yevropaliklarni qabul qiladigan „darvoza” ga ega bu mamlakatda turizm infrastrukturasiga katta investitsiya kiritildi. Bugungi kunda besh yulduzli mehmonxonalar soni va sig’imi bo’yicha Yevropada yetakchi o’rinlarni egallabgina qolmay, „hamma narsa kiritilgan” ya’ni „all-inclusive” modeli bo’yicha global mezon bo’lib qolmoqda.

Turkiya lirasi so’nggi yillarda qadrsizlandi ya’ni chet el valyutasiga nisbatan ancha tushib ketdi. Bu o’zgarish xorijlik sayyohlar uchun narxi-sifat nisbati jihatidan juda jozibali bo’lib qoldi. Yuqori sifatni tejamkor narxlarda taklif etgani uchun Yevropa va Shimoliy Amerika sayyohlari orasida ham qulay hududga aylanmoqda.

2. Muammoli tomonlar (Weaknesses)

Bir qancha qulayliklarga egaligiga qaramay Turkiyaning imijiga salbiy ta’sir ko’rsatgan omillar ham mavjud. 2016-yilda mamlakat hududida ro’y bergan muvaffaqiyatsiz davlat to’ntarishi, mintaqadagi geosiyosiy zo’riqish shular jumlasidan. Albatta bu holat izziz ketmadi va bir qator G’arb mamlakatlari davlat tashkilotlari Turkiyaga sayohat bo’yicha ehtiyotkorlik ogohlantirishlari e’lon qildi

Turizmning ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismiga egalik qilishi turizm rivojlangini ko’rsatishi bilan birga ba’zi noqulayliklarni tug’diradi. Soha inqirozga sezgir ya’ni pandemiya, tabiiy ofatlar, siyosiy tanglikda butun milliy iqtisodiyotga ta’sir

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiyada_turizm

⁸ https://en.wikipedia.org/wiki/Tourism_in_Turkey

⁹ <https://www.researchgate.net/publication/341094880> AGRO TOURISM_IN_TURKEY

ko'rsatish xavfini ko'rsatadi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida turizmning qulashi natijasida Turkiya iqtisodiyoti katta yo'qotishlarga yuz tutdi[11].

Mamlakatga tashrif buyuruvchilarning katta qismi yoz oyida bo'lganligi yangi muammo ya'ni mavsumiylikni keltirib chiqaradi. Antaliya, Bodrum va boshqa dam olish hududlari havo harorati o'zgargandan keyin bo'sh qoladi. Asosan qishda yuzaga keladigan bu muammo sabab mehmonxona va boshqa sayohatga yo'naltirilgan korxonalar butun yil davomida ham to'la quvvatda ishlay olmaydi. Natijada mavsumiy ishsizlik yuzaga keladi [11].

Mashur, yirik kurort hududlari va Istanbul kabi shaharlar jahon standartlariga javob beradigan xizmat ko'rsatsa-da, hududlar o'rtasida xizmat sifatida katta tafovutlar mavjud. Ichki hududlardagi tarixiy va tabiiy ob'ektlarda turistik infratuzilma va xizmat ko'rsatish darajasi umuman past bo'lishi mumkin. Bu esa Turkiyaning «barcha toifadagi» sayyohlar uchun universallik imijiga putur etkazadi.

Kuchsiz lira¹⁰ xorijliklarning ma'lum qismi uchun sayohat narxini arzonlashtirsada, boshqa tarafdin turizm korxonalari xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Shu bilan birga, valyuta kursining beqarorligi uzoq muddatli investitsiyani rejalashtirishni qiyinlashtiradi.

3. Imkoniyatlar (Opportunities)

Dunyoda aholi soni bo'yicha yetakchilik qiladigan Xitoy, Hindiston kabi davlatlar, Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyodan sayyohlar sonining ko'payishi Turkiya uchun yangi katta bozorlarni ochmoqda. Tarixan bir-biriga yaqin bo'lgan, umumiy madaniy ildizlar, til yaqinligi Ozarbayjon, O'zbekiston va Qozog'iston kabi mamlakatlardan sayohat qiluvchilar sonining o'sishiga turtki bo'lgan omillardir.

Milliy daromad oshishida xizmat ko'rsata oladigan yana bir imkoniyat tibbiy turizm salohiyatini kengaytirishdir. Turkiya dunyo tibbiy bozorida mavqegani egallab bo'lgan va estetik jarrohlik, ko'z operatsiyalari, onkologik kasalliklarni davolash bo'yicha ancha raqobatbardosh narxlarni taklif qiladi. 2024-yilda 1,5 mlndan ortiq „health tourist“ qayd etilgan[5].

Butun dunyoda tabiatga zarar yetkazmagan holda sayohat qilishni xohlaydigan sayyohlar sonining oshishi Turkiya uchun yana bir sohaga yo'l ochadi. Kapadokiya, Likian yo'li, Kachqar tog'lari va Egey qishloqlarida ekologik turizm, agroturizm, trekking uchun imkoniyatlar taqdim etadi. Turizmning bu segmenti esa hali to'la rivojlanmagan.

Istanbul va Anqara yil davomida turistik faoliyat olib bora oladi lekin, tog'li hududlar uchun qish mavsumida ham faoliyat yuritadigan dasturlarni ishlab chiqarish mavsumiylikni kamaytirishda xizmat ko'rsatadi. Madaniy tadbirlar, festivallar va turli loyihalar sayyohlar oqimini ta'minlashi mumkin.

¹⁰ <https://tradingeconomics.com/turkey/currency>

4. Tahdidlar (Threats)

O‘rta yer dengizi va Yaqin Sharqda yuzaga keladigan siyosiy beqarorlik , qo‘shni davlatlar bilan vaqti- vaqti bilan o‘zgarib turadigan diplomatik vaziyat Turkiya turizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Mintaqada yuzaga keladigan beqarorliklar sayohat qilishni istovchilar sonini kamaytirishi mumkin.

O‘rta yer dengizi turizm bozorida Gretsiya, Ispaniya, Misr, Italiya va Xorvatiya kabi mamlakatlar ham yuqori turistik salohiyatga ega va bu omil o‘z navbatida raqobatni yanada kuchaytiradi[4]. Masalan, so‘nggi yillarda Gretsiya yuqori sifatli “sun and beach” turizmi, boy madaniy merosi hamda Yevropa Ittifoqi bilan integratsiyalashganligi sababli xalqaro sayyohlar oqimini sezilarli darajada ko‘tarilgan. . Quyidagi 3-jadvalda Turkiyaning asosiy raqobatchilari [3] bilan qiyosiy tahlil keltirilgan.

3-jadval. O'rta yer dengizi davlatlarining turizm ko'rsatkichlari taqqoslamasi (2023)

Ko'rsatkich	Turkiya	Gretsiya ¹¹	Ispaniya	Misr
Tashrif (2023, mln)	56,1	32,7	85,1 ¹²	13,6
Daromad (mlrd \$)	54,3	20,6	92,1	13,0
UNESCO ob'ektlari	21 ¹³	18	50 ¹⁴	7
YaIMdagi ulush (%)	11,7	18,5	12,4	9,8
All-inclusive imkoniyat	Yuqori	O'rta	Yuqori	O'rta

Manba: UNWTO (2023[7]), muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadvaldan ko'rinadiki, tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha Turkiya Ispaniyadan keyingi ikkinchi o'rinda turadi, biroq daromad ko'rsatkichi bo'yicha ancha pastligi turistik xizmatlar qo'shilgan qiymatini oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Iqlim o‘zgarishi muammosi Turkiyani ham chetlab o‘tmadi. Suv tanqisligi muammosi chuqurlashgani 2025-yilda Istanbul shahrida yuzaga kelgan vaziyatni izohlaydi. So‘nggi 50 yilda¹⁵ yuzaga kelgan eng kuchli qirg‘oqchilik, Egey va O‘rta yer dengizi sohillaridagi intensiv qurilishlar samarali ekologik boshqaruvni talab etadi.

¹¹ <https://www.e-unwto.org/loi/wtobarometereng>

¹² https://www.lamoncloa.gob.es/lang/en/gobierno/news/paginas/2024/20240202_international-tourists.aspx

¹³ https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_World_Heritage_Sites_in_Turkey

¹⁴ <https://gowithguide.com/blog/tourism-in-spain-statistics-2024-your-in-depth-travel-guide-5686>

¹⁵ <https://share.google/xjszHQQxpNpEnRilX>

Dunyo miqyosida yuzaga keladigan inqirozlar turizm sanoatini tezda zaiflashtirib qo'yishini COVID-19 pandemiyasi isbotladi. Turkiya pandemiya davrida turizm daromadlarining keskin qisqarishi natijasida og'ir iqtisodiy yo'qotishlarga duch keldi. Kelajakda ham shunga o'xshash pandemiyalar, global moliyaviy inqirozlar yoki iqlimiy ofatlar takrorlanishi mumkin.

Turkiya turizm modelining O'zbekiston uchun ahamiyati

"O'zbekiston — 2030" strategiyasiga¹⁶ muvofiq, 2030-yilgacha 20 mln xorijiy turist qabul qilish va turizm eksportini 6 mlrd dollarga yetkazish maqsad qilib belgilangan. 2024-yilda mamlakatga 8 mln xorijiy turist tashrif buyurdi va turizm daromadi 3,52 mlrd dollarga yetdi.¹⁷ Biroq bu ko'rsatkichlar Turkiyaning 56,7 mln tashrif va 54,3 mlrd dollar daromadi bilan solishtirilganda sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi¹⁸). Shu sababli Turkiya turizm tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, all-inclusive infratuzilma modeli. Turkiya yirik mehmonxona investitsiyalari orqali YaIMning 12 foizini va 3,2 mln ish o'rnini ta'minladi¹⁹. O'zbekistonda esa dam olish va kurort turizmi hali rivojlanmagan — "O'zbekiston-2030" doirasida 4000 ta yangi mehmonxona qurilishi rejalashtirilayotgani²⁰ muhim qadam hisoblanadi.

Ikkinchidan, mavsumiylikning chorasi sifatida Turkiya tibbiy turizm, ekoturizm va qishki turizm orqali yil davomida sayyoh oqimini ta'minlashga harakat qilmoqda. O'zbekiston uchun ham Samarqand, Buxoro va Xivadagi bahor-kuz gavjumligini yil bo'yi ta'minlash maqsadida alternativlarni rivojlantirish zarur.

Uchinchidan, sifatga yo'nalish. Hozirda O'zbekistonga kelgan turistning o'rtacha sarfi atigi 403dollar²¹ va bu Turkiyadagidan 5-6 barobar past. Tsereteli [8] ta'kidlaganidek, O'zbekiston "hajmdan sifatga" o'tishi - ya'ni turistlar sonini emas, ularning sarfini oshirishni ustuvor qilishi lozim.

Turkiyaning muammoli tomonlari O'zbekiston uchun ham ogohlantirish vazifasini o'taydi. COVID-19 davrida turizmga haddan tashqari bog'liq bo'lgan Turkiya iqtisodiyoti katta yo'qotishlarga uchradi²². Shuningdek, hududlararo xizmat sifati tafovuti O'zbekistonda ham kuzatilmoqda: yirik shaharlarda infratuzilma rivojlangan bo'lsa-da, viloyatlarda ahvol pastligicha qolmoqda²³.

Xulosa va tavsiyalar

¹⁶ https://gov.uz/en/pages/2030_strategy

¹⁷ <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism>

¹⁸ <https://www.dailysabah.com/business/tourism/turkiye-crowns-2023-with-record-492m-tourists-543b-in-revenue>

¹⁹ <https://wtcc.org/news/travel-tourism-sector-reached-record-breaking-new-heights-last-year>

²⁰ <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-plans-to-increase-number-of-foreign-tourists-to-20-million-by-2030>

²¹ <https://www.worlddata.info/asia/uzbekistan/tourism.php>

²² <https://doi.org/10.3390/su17020591>

²³ <https://doi.org/10.3389/frsus.2026.1784778>

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, Turkiya turizm industriyasi qulay geografik joylashuvi, boy tarixiy-madaniy merosi, rivojlangan infratuzilmasi va raqobatbardosh narx siyosati kabi strategik ustunliklarga ko’ra jahon turizm bozorida yetakchi mavqeni egallab kelmoqda. Turizm mamlakat iqtisodiyotida nafaqat valyuta tushumlarini ko’paytirish, balki bandlikni ta’minlash va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish jihatidan ham muhim o’rin tutadi.

Biroq, o’tkazilgan SWOT tahlil bir nechta muammolarni ham aniqladi. Mavsumiylik, hududlararo infratuzilma tafovutlari, siyosiy va makroiqtisodiy beqarorlikka nisbatan sezgirlik turizm uzluksiz va barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi ichki omillar sifatida baholanadi. Global inqirozlar, iqlim o’zgarishi va kuchayib borayotgan xalqaro raqobat tashqi tomondan ta’sir qiladigan muammolardir.

Turkiya turizm industriyasining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashda bir qator strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Aytib o’tilganidek, mavsumiylikni kamaytirish, ekoturizm agroturizm va qishki turizm kabi alternativ yo’nalishlarni rivojlantirish, hududiy infratuzilmani zamon talabiga javob beradigan darajaga olib chiqish, ekologik barqarorlik tamoyillarini joriy etish, shuningdek yangi geografik bozorlarga ta’sir etish va xizmat ko’rsatish sifatini tizimli ravishda yaxshilash maqsadga muvofiq. Ushbu kompleks yondashuv mamlakatga global turizm tizimidagi raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, Turkiya tajribasini o’rganib O’zbekistonda turistik xizmatlar sifatini oshirish va yangi turizm segmentlarini rivojlantirish orqali mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bilek, A., et al. (2025). Modeling tourism demand in Turkey (2008–2024): Time-series approaches for sustainable growth. *Sustainability*, 17(4), 1396. <https://doi.org/10.3390/su17041396>
2. Daily Sabah. (2024, January 31). Türkiye crowns 2023 with record 49.2M tourists, \$54.3B in revenue. Daily Sabah. <https://www.dailysabah.com/business/tourism/turkiye-crowns-2023-with-record-492m-tourists-543b-in-revenue>
3. Erkan, B., & Çetin, G. (2024). The competitiveness of Turkish tourism in the global market. *Sustainability*, 16(24), 11232. <https://doi.org/10.3390/su16241123>
4. Eurostat. (2024). Tourism statistics — Annual results for the accommodation sector. European Commission. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Tourism_statistics

5. Korkmaz, H., et al. (2025). Competition in medical tourism and consumer spending: Evidence from Turkey's growing healthcare market. *Healthcare*, 6(4), 186. <https://doi.org/10.3390/healthcare6040186>
6. Ministry of Culture and Tourism of Turkey. (2024). Tourism statistics annual report 2023. Republic of Türkiye. <https://www.ktb.gov.tr/EN-153031/tourism-statistics.html>
7. UN Tourism. (2023). World tourism barometer (Vol. 21, No. 4). United Nations Tourism Organization. <https://www.e-unwto.org/doi/abs/10.18111/wtobarometereng.2023.21.1.4>
8. Tsereteli, S. (2025). Uzbekistan tourism: The quality imperative. <https://centralasiacaucasusinstitute.substack.com/p/uzbekistan-tourism-the-quality-imperative>
9. World Travel & Tourism Council. (2024). Türkiye travel & tourism economic impact 2024. WTTC. <https://wttc.org/news/travel-tourism-sector-reached-record-breaking-new-heights-last-year>
10. Yıldız, B., & Kaya, M. (2025). The impact of tourism on the resilience of the Turkish economy: An asymmetric approach. *Sustainability*, 17(2), 591. <https://doi.org/10.3390/su17020591>
11. Yılmaz, T. (2025). Sustainability trends in Turkish tourism: A longitudinal analysis of tourist arrivals, overnights and occupancy rates (2000–2024). *Sustainability*, 17(18), 8333. <https://doi.org/10.3390/su17188333>